

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA JURNALISTIK ELEMENTLAR: FAKT, FACTCHECKING VA OCHERK JANRIGA XOS XUSUSIYATLAR

Hikmatillayev Ma'ruf Rahmatullo o'g'li

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Xalqaro va audiovizual jurnalistika
fakulteti Teleradio yo'nalishi
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Alisher Navoiy kulliyoti Sharq va G'arb adabiyotida muhim o'rin tutgan yo'ldir. Adabiyotshunos olimlar Navoiy hayoti va ijodini keng muhokama qilar ekan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Biroq Hazratning asarlaridagi qahramonlar, ularning hayot va ijod ustidagi personajlarini tatbiq etish va o'rganishda biroz sustlikka yo'l qo'ydik, deb o'ylaymiz. Chunki Navoiy bir vaqtning o'zida barcha davrlarga taalluqli ijodkordir. Agar ul zotni buyuk shaxs deya e'tirof etsak, demak, asarlaridagi qahramonlar, voqealar ham bejizga tanlab olinmagan va shu asnoda ularning hayoti bekordan bekorga yoritilmagan. Ushbu maqolamizda Alisher Navoiy asarlaridagi qahramonlarga xos bo'lgan tarixiy faktlarni o'rganamiz, uning asardagi roli va o'rni borasida fikrlashamiz.

Kalit so'zlar: factchecking, haqiqiylik, obyektivlik, Prezident adminstratsiyasi, Shoh G'oziy, Xorazmshoh, fakt, ilmiy fakt, siyosiy fakt, axboriy fakt, xabar.

ABSTRACT

Alisher Navoi's work has an important place in Eastern and Western literature. Literary scholars widely discussed Navoi's life and work, and conducted scientific research based on them. However, we think that we have allowed a little slackness in applying and studying the heroes of Hazrat's works, their characters on life and creativity. Because Navoi is an artist relevant to all eras at the same time. If we recognize him as a great person, it means that the characters and events in his works were not chosen in vain, and thus their lives were not covered in vain. In this article, we will study the historical facts characteristic of the characters in the works of Alisher Navoi, and think about his role and place in the work.

АННОТАЦИЯ

Творчество Алишера Навои занимает важное место в восточной и западной литературе. Литературоведы широко обсуждали жизнь и творчество Навои, проводили на их основе научные исследования. Однако, на наш взгляд, мы допустили некоторую расхлябанность в применении и изучении героев произведений Хазрата, их характеров в жизни и творчестве. Потому что Навои – художник, актуальный для всех эпох одновременно. Если мы признаем его великим человеком, то это означает, что персонажи и события в его произведениях выбраны не зря, а значит, их жизнь освещена не зря. В этой статье мы изучим исторические факты, характерные для персонажей произведений Алишера Навои, и задумаемся о его роли и месте в произведении.

KIRISH

Jurnalistikada janr bilan bir qatorda informatsiya-ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni tekshirish, xolisligini aniqlash, ma'lumotni to'g'ri yetkaza olish har bir mass-media sohasi vakilining vazifasidir.

XIX asrga kelib, jurnalistika endi shakllana boshlagan davrlarda fanga "faktchecking" degan atama kirib keldi. Bu yo'nalish nisbatan kechroq kashf etilgan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimda borib taqaladi. Misol uchun qadimda protojurnalistika davrida ham buning ilk unsurlari- belgilarini kuzatishimiz mumkin. Davlatlar dushman ustiga bostirib keladigan bo'lsa, eng avvalo, ayg'oqchilar bundan xabardor bo'lishi kerak edi. Ular hukumatga hudud, mamlakat, aholi haqida qimmatli xabarlarni olib kelar, shu orqali sarkardalar o'z qo'shinini urushga tayyorlashadi. Mish-mishlarni tasdiqlash yoinki uni inkor etishda ham josuslarning o'ri benihoya katta bo'lgan va bu qadimda bugungi zamonaviy media makondagi faktlarni tekshirishga asoslangan saytlarning vazifasini bajargan. Ya'ni ular yangilik, mish-mish, informatsiyalarni tahlil qilar, ular bilan bog'liq hodisalarni tadqiq etar, manbalar bilan ishlab, ularning haqiqiy va xolis yoki noxolis ekanligini isbotlar edi.

Navoiyga bu ma'lumotlarning nima aloqasi bor, degan savol tug'ilishi tabiiy. Tasavvur qiling, barcha davrlarning ko'zga ko'ringan ijodkori o'z asarlaridagi qahramonlar, voqealarga oddiy nigoh bilan qaraydimi, yoinki, tarixdan isbot keltirishda shaxslarni sahnalashtiradimi?! Bundan bo'lishi mumkin emas. Chunki "Hayrat ul-abror" dostonida yolg'on haqida so'z yuritar ekan:

Kimsaga yolg'onchi debon qolsu ot,
Bu ot ila chorlasalar o'zu yot.
Sidq xitobi yana yonmas anga,

Chin desa ham, xalq inonmus anga.
Kimki chini el uro yolg'ondurur,
Yolg'oni chinliqqa ne imkonidurur?
Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demus ersang, dema yolg'on dog'i,- deydi.

ADABIYOT TAHLILI, MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday ekan, bugungi maqolamizni ushbu fikr tahliliga bag'ishlasak. Navoiyning asarlarida o'zining adabiy qarashlari, turkiyatshunosligi, tarixiy haqiqatlarni ma'naviy qahramonlikka aylantirishga qaratilgan ta'siri katta e'tiborga sazovor. Shuningdek, jurnalistikaga oid mavzularda ham uning ijodiyot olamida hali yoritilmagan deb hisoblanadi. Biroq Navoiyning asarlarida ba'zi jihatlar jurnalistik unsurlarni birlashtiradi. Bilamizki, jurnalistikaning dastlabki ko'rinishi, bir xabarni topish, uni to'plash va uni o'qitish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu jarayonning boshlang'ich qismlaridan biri ko'p xabarlar va axborotlarni olish, ularning aniq ekanligini tekshirishdir. Dastlabki ko'rinishda jurnalistlar, turli manbalardan xabarlar va axborotlarni topish uchun ma'lumotlar oladilar. Bu ma'lumotlar, hukumat tomonidan e'lon qilingan axborotlar, tashqi manbalardan kelgan yangiliklar yoki jurnalistik izlanishlardan kelib chiqqan ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Bu bir qarashda zamonaviy media makonda tezda hal bo'ladigan jarayondek tuyulasada, Navoiy davrida qanchalik qiyin bo'lganini bir so'z bilan tavsiflash mumkin: internetsizlik. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar va bugungi zamonaviy texnologiyalarning yo'qligi, eng avvalo, har bir insonning to'g'ri ma'lumot olishida qiyinchilik keltirib chiqargan. Har bir yoziladigan asarlarda ham yoziladigan faktlar aniq va ishonchli bo'lmog'i lozim edi. Keling, Navoiy o'z ijodida, aynan "Hayrat ul-abror"da qo'llagan tarixiy faktlarga to'xtalsak va uning bugungi zamonaviy dunyoda "fakt checking" qilib, haqqoniylik bilan bog'liqligini izohlasak.

Navoiyning asarlari o'z ichiga turli janrdagi adabiyot turlarini oladi - masallar, ruboiylar, g'azallar, tarjimalar va boshqalar. Uning asarlari haqidagi javobgarlik va samimiy xarakteristikasi jurnalistikaga oid unsurlarni ko'rsatadi, ya'ni hazrat biror narsa yozishdan oldin u haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan. Jurnalistikada faktlar aniqlik bilan ifodalangan bo'lishi kerakligini inobatga olsak, Navoiy ham shu prinsiplarni o'z asarlari orqali amalga oshirgan.

Navoiyning asarlaridagi faktlarni tahlil qilishga oid unsurlarning biri, haqiqiylik va obyektivlikdir. Jurnalistikada faktlarni taqqoslashdan tashqari, ularni obyektiv va haqiqiy sifatda ifodalash juda muhim. Navoiy ham shu prinsipni o'z asarlarida amalga oshiradi. Uning ijodi jahon adabiyotiga ta'sir qilganligi uchun, asarlari tarixiy va madaniy mohiyatli bilimlarni ifodalaydi.

Misol uchun, “Hayrat ul-abror” dostonidagi ikkinchi maqolatda keltirilgan hikoyada Ibrohim Adham haqidagi ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi. Hikoya boshidayoq Ibrohim Adhamning taxtdan voz kechib, toat-ibodatga o‘tganligi bayon qilinadi. Shu o‘rinda bu kim degan o‘rinli savol tug‘iladi. Ibrohim Adham ilk zohid so‘fiy avliyolarining eng ko‘zga ko‘ringanlaridan biri deya e’tirof etiladi. Uning din yo‘liga o‘tganligi so‘fiyzoda hikoyalar orasida eng mashhuridir. Eslatma uchun u milodiy 718-782-yillarda yashab o‘tgan.

Bilamizki, mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning har bir harakati aholi tomonidan katta qiziqish ostida kuzatib boriladi. Har bir qaror va farmonlari xalq o‘rtasida qizg‘in kutib olinadi. Bu ma’lumotlardan voqif etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga yuklatilgan vazifadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatini axborot-tahliliy va tashkiliy-nazorat jihatdan ta’minlashni amalga oshiruvchi davlat organidir. Xuddi shu tashkilot faoliyati qadimda bo‘lmagan bo‘lsa-da, ba’zi asarlarda podshohlarning qilgan ishlari, yaxshi amallari, yurishlari haqidagi ma’lumotlar axborot xizmati vazifalarini bajargandek ko‘zga ko‘rinadi. Navoiy ham o‘z asarlarida Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro haqida qimmatli ma’lumotni taqdim etadi. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostoni uchinchi maqolatda Husayn Boyqaro va kampir o‘rtasida tortishuv kitobxon e’tiboriga havola qilinadi. Bir qarashda oddiy hikoya bo‘lib tuyulgan bu voqea tarixiy faktlarga asoslanganini Navoiy ushbu misra orqali ifoda etadi:

“Shoh G‘oziy qahrining garmseli bir qaysar boshqni barbod etgani, adolatining suvi esa o‘sha boshq bitgan buzuq ekinzorni obod qilgani”.

Bu jihatlarida Hazrat, eng avvalo, inson shaxsiyatiga oid jihatlarga urg‘u beradi va bugungi jurnalistikaning ocherk janrining unsurlariga qo‘l uradi. Shuningdek, Navoiyning "Hiloliya" asari ham Shoh G‘oziyga bag‘ishlangan bo‘lib, u 1469 yilda Sulton Husayn Boyqaroning taxtga chiqish marosimi munosabati bilan unga (shohga) taqdim etilgan. Qasida yangi oy –hilolning tasviri bilan boshlanadi va buni qiyosiy jihatdan yangi podshohning belgisidir. “Qiziq bir tasvir bor, u ham bo‘lsa, shoir xayolan Atorud bilan Shoh Abulg‘ozi Sulton Husayn haqida mushoiraga kiradi va o‘z madhiya bayti bilan «Atorudni xijil” qiladi, parivash do‘sti va Sulton Husaynning ham baytlar bitganliklarini tasvirleydi. Shundan so‘ng Sulton Husayn Boyqaro madhi beriladi”,- deb yozadi Botirxon Valixo‘jayev o‘zining bir maqolasida. Darhaqiqat, bir qarashda bu asar hamd va madhdan iboratdek, tuyulishi mumkin, ammo zimdan qaraganda Navoiyning o‘z qarashlari, boshqalar singari

podshohlarni madh etmaganini payqaysiz. Bu asarda portret ocherkiga xos bo'lgan belgilar uchraydi. Ya'ni shoir zamona shohining fazilatlarini, xislatlarini, xulqi xususida alohida to'xtalib, kelajakdagi orzulari haqida o'z fikrini bayon qiladi, u haqidagi qimmatli ma'lumotlarni bo'lishadi.

“Ul zoti bobarakotni Hirot ahli, ugina emas, balki barcha koinot ahli solik qomusi deb atagan”, deya ma'lumot keltirilgan Xoja Abdulaziz Ansoriy haqida “Hayrat ul-abror”da. Xoja Abdulaziz Ansoriy buyuk so'fiy, “Piri Hirot”, “Shayxul mashoyix”, “Shayxul Islom” nomlari bilan mashhur bo'lgan allomadir. Alisher Navoiy bu yerda uning tug'ilgan manzilini qisqa xabar orqali ifodalab ketadi. Agarda biz bu zot haqida ma'lumot qidirsak, uning 1006-yil Hirotida tug'ilganligi va, asosan, shu yerda yashab, faoliyat yuritganiga guvoh bo'lamiz.

Xorazmshohlar davlati o'z davrining yetuk va eng ilg'or olimlarini bir hududda jamlagan, ilmga homiylik qilgan mamlakat sifatida tarix sahifalarida qolgan. O'rta asrlarda ilm va podshoh o'rtasida bog'liqlik mavjud, davlat rahbari mashvarat-u majlislarida olimlarga suyanishini manbalardan kuzatamiz. Xususan, Imom Faxriddin va Xorazmshoh o'rtasidagi munosabat og'izdan og'izga o'tib kelmoqda.

Imom Faxriddin mufassir, kalomshunos, faylasuf va voiz sifatida xalq orasida dovrug' qozongan. O'rta asrlarda ilm yuqori baholangan bo'lib, uni oyoq osti qilmaslik uchun, hatto shoh yo'qlamasa, uni yo'qlashmagan. Imom Faxriddin ham “Hayrat ul-abror”da aytilganidek, Xorazmni o'ziga oromgoh qilganda, uni ko'rishga Xorazmshoh kelmadi. Natijada u ham ilmni xor qilmaslik uchun davlat rahbari huzuriga bormaydi. Ammo Sulton Muhammad bilan hammomda uchrashib qolishadi va qisqa aytishuv qilishadi. Navoiyning ushbu hikoyatida muhim bo'lgan bir nechta fakt o'rta tashlangan. Birinchisi, Imom Faxriddinning Xorazmda ham faoliyat yuritgani, ikkinchidan ilm ahli ekanliklari, uchinchidan, Sulton Muhammad amalda hukmdor ekanligi, to'rtinchidan O'rta asrda ilmga bo'lgan e'tiborning yuksakligi. Shuningdek, azaldan hukumat va ilm bir bo'lib kelganini aniqlaymiz. Endi shu o'rinda bir jihatga e'tiboringizni qaratsak. Sulton Muhammad. Nega Navoiy o'z asariga aynan uni ma'lum bir personaj qilib oldi. Chunki Sulton Muhammad Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlatining eng mashhur hukmdoridir. To'liq ismi Qutbiddin Muhammad ibn Takash ibn Elarlon ibn Anushtegin. Otasi – Takash xorazmshoh, onasi Turkon xotun qipchoq xoni Jonkishining qizi. Muhammad 1193-yil dekabrda otasi tomonidan Nishopur shahriga voliy (hokim) qilib tayinlangan.

Muhammad davrida saltanat ham hududiy, ham kuch-qudrat jihatidan o'zining yuksak cho'qqisiga yetgandi. Shuni inobatga olsak, o'z zamonasining hukmdori ilmning oldida bosh egmoqda. Demakki, ilm o'rta asrlarda shaxs nomusidan ham ustun qo'yilgan.

Bu asrdagi o'n to'qqizinchi maqolat e'tiborni, ayniqsa, tortadi. "Xuroson bayonida" deyilgan qismda bu diyor haqida qimmatli ma'lumotlar o'rtaga tashlanadi:

"Xuddi yulduzlar yetti taqsim qilingandek, jahon ham yetti iqlimga bo'lingan. Ular bir-birlaridan quvvat oladilar, bir- birlarini tarbiya ham qiladilar. Quyosh bu olti duraxshandaga fotiq - rahbar hisoblanib, iqlimi ham o'ziga xosdir. Quyosh o'z nurin orom aylasa, yulduz ko'zga ko'rinadimi? To'rtinchi charx ma'vosidir, o'sha iqlimning murabbosidir. Yerda bu iqlim yoqimli bo'lib, ko'kda quyosh gumbazidek tengsizdir. Yer o'lchashni ham alohida bir fan masohat fani deb ataydilar, shuning uchun to'rtinchi iqlim deyishadi uni.

Go'zallikda jannat bog'idir u, jannat bog'ini ham qo'yaver, mulki Xurosondir u: maydoni to'rtinchi falakdan kengroq, darajasi yettinchi osmondan yuksakroq. Hududida shahr son- sanoqsiz, har birining bezaklari haddan tashqari ko'p. Shaharlari go'zallikda jannatning o'zginasi. Yaxshi odamlari u jannat bog'idagi hurlarning o'zginasi.

Tog'lari oldida falak sodda bir dashtga o'xshaydi, barchasining ko'ksida yuz xil kon, u konlarni rang-barang javohirlar o'ziga makon qilib olgandan, chashmasidagi suvni ko'rib ham bo'lmaydi, bu suvlar kondan oqib chiqqani uchun ham javohirga aylangandir.

Olooh-olloh, ne Hiri, bu Hiri,
Bir-biridan turfa uning har biri".

Dastlab, faktlarga urg'u qaratsak. Yetti iqlim deya Navoiy ekvatorial, subekvatorial, tropik, subtropik, mo'tadil, subarktika, sub-antarktika, arktika va antarktika mintaqalarini nazarda tutmagan bo'lsa kerak, chunki bu tasnifga eng yaqin manba, ya'ni eng tanish iqlim tasnifi tizimi 1900 yilda rus-nemis olimi Vladimir Ko'ppen tomonidan ishlab chiqilgan. Iqlim zonalaridagi MapMaker Interaktiv qatlamimiz Ko'ppen iqlim tasnifi tizimiga asoslangan. Demak, bu tarixiy fakt azaldan O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lganligini ochiqalaydi. "Ko'ksida yuz xil kon, u konlarni rang-barang javohirlar o'ziga makon qilib olgandan", degan qismidan esa mamlakatda yerosti va yerusti boyliklari nihoyatda ko'p ekanligini sezamiz.

"Gullarining navini sanash ham qiyin, ularning turlarini sanay olgancha sanash mumkin-da!", "Qushlari yuz nav-u, barchasi xush ilhom, barchasi sabza-u gullar ustini qoplab oladi" kabi jumlar Xuroson biosferasidan xabar berib turibdi.

"Shimol tomonidan esa ikki daryo oqib o'tadi, ulardan shahar suvga serob bo'ladi". Demak, shaharga ikki daryo suv berib turgan.

"Kimki ko'nglidan sevsa bu shaharni hirs-hujjat, dalil uni ko'ngil mulkiga sulton deb atashadi. Ulug'lar buni jahon kishvariga shoh deb tilga oladilar. Uni shoh

desalar ajab emas, chunki shoh yeri qalbdada emasmi? Hirot ko'ngil o'rnida ekan, undan ahli hech ko'ngil uzolmaydi ham", deya Hazrat Hirotni dunyoning markazi deb ataydi. Darhaqiqat, bu davrda Hirotdek rivojlangan va yuksalgan shahar bo'lmagan.

XULOSA

Agar biz har bir maqolatni birma -bir, ichiga kirib tahlil qilsak, undagi ma'lumotlarni tarixiy, ilmiy, siyosiy, adabiy faktlarga ajratishimiz, shu orqali o'sha davr ruhiyatini his qilishimiz va aniq tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Demakki, Navoiy asarlarida fakt checking alohida o'rin tutadi.

Navoiyning asarlarida jurnalistikaga oid unsurlardan biri ham tarixiy faktlarni ma'lumotlar to'plami sifatida ko'rsatishdir. Jurnalistikada tarixiy mohiyatli faktlar muhim bo'lib, ular dastlabki manba sifatida qo'llaniladi. Navoiyning "Mahbub ul-Qulub", "Hayrat ul-Abror" kabi asarlari tarixiy haqiqatlardan iborat bo'lib, ular turli davrlarda yuzaga kelgan voqealar haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Boshqa bir jurnalistika unsuri Navoiyning asarlarida ishtirok etgan insonlarning taxallusi va mulohazalaridir. Jurnalistikada rivojlangan insonlar o'z mulohazalari va fikrlarini ifodalaydilar, shuningdek, ularning taxalluslari va izohlarining adolatliligini ta'minlash kerak. Navoiy ham shu prinsipni o'z asarlari orqali amalga oshiradi va bu unsurlarni jurnalistikaga oid qoidalar bilan birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Ul zotning asarlarida faktlarni tahlil qilishga oid unsurlardan biri ham ijodiy til va usullardir. Jurnalistikada ijodiy til va usullar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular maqolalar yoki yangiliklarni sodda, yetuk va qiziqtiradigan shaklda ifodalash uchun ishlatiladi. Navoiyning tarjima asarlari esa turli til va usullardan foydalangan holda ijod qilinadi. Ya'ni bugungi zamonaviy media tili bilan aytilganda "xabar va ma'lumotlar xalq uchun sodda tilda, tushunadigan so'zlar bilan bayon qilinishi zarur". Ushbu maqola orqali qisman bo'lsa-da, g'azal mulkinging sulmoni faoliyatidagi bugungi jurnalistika oid unsurlarni tahlil qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/xoja-abdulloh-ansoriy-1006-1088>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Faxriddin_Roziy#cite_ref-1
3. "Hayrat ul-abror" dostoni
4. Manba <https://tafakkur.net/shoh-goziy-haqida-hikoyat/alisher-navoiy.uz>
5. Botirxon Valixojayev. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi). Ikkinchi qism.
6. Allan, Styuart (2004), Yangiliklar madaniyati.
7. Bosma ommaviy axborot vositalarida janr va mahorat masalalari V.
8. Jurnalistika Audiovizual jurnalistika VI